

XX ASRNING 80-YILLARI IKKINCHI YARMIDA QASHQADARYO VILOYATIDAGI IJTIMOYIY JARAYONLARNING XUSUSIYATLARI

Yer yuzining oltidan bir qismini egallagan Sovet ittifoqida o‘tgan asrning 80–yillariga kelib jamiyat hayotida yetilib turgan muammolar o‘z natijasini ko‘rsata boshladi. Bu ichki muammolar ayniqsa hokimiyat tepasiga M.S. Gorbachyovning kelgan vaqtida yanada avj oldi. Ba’zi adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, bu muammolar Gorbachyov hokimiyatga kelmasidan ancha avval, N.S. Xrushchyov va L.Brejnev davrlaridayoq mavjud bo‘lib, o‘zining yashirin holatida bo‘lgan¹.

Ittifoq tarkibiga kiruvchi O‘zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy sohada muammolar talaygina edi va respublikaning o‘sha paytdagi ahvoli butunittifoq ko‘rsatkichlaridan ancha pastda edi. Bu esa o‘z navbatida aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. Respublika tarkibiga kiruvchi Qashqadaryo viloyatida ham ahvol boshqa hududlardan katta farq qilmasdi.

Bu muammolarni hal qilish maqsadida aholi uchun birlamchi ahamiyat kasb etuvchi oziq – ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish, ularni barcha qatlamlarga birdek yetkazishni ta’minlash yuzasidan 1987-yilda XIX butunittifoq partiya konferensiyasida va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XI plenumida qaror qabul qilinadi. Qaror yuzasidan Qashqadaryo viloyatining o‘sha paytdagi birinchi rahbari I.A.Karimov viloyat rahbarlari bilan birgalikda “ Aholini oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni yaxshilash yuzasidan viloyat partiya, sovet va xo‘jalik organlarining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari” to‘g‘risida ma’ruza qiladi. Ma’ruza avvalboshdan tanqidiy ruhda kechib, keltirilgan hisobotlarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan unda shunday deyiladi, “So‘nggi ikki yil (1985-1986 yillar nazarda tutilmoqda) ichida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 20 foizga o‘shishga erishilganligi xotirjamlikka berilishga asos bo‘la olmaydi, balki u tashvish tug‘diradi va bizni qanoatlantirmaydi. Chunki bu o‘shish aholining ortib borayotgan qismi talabini qoplaydi, xolos. Aholi jon boshiga asosiy mahsulotlarni iste’mol qilish esa o‘tgan yillar darajasida qolmoqda”. Viloyatda o‘sha paytda aholi jon boshiga yiliga 20 kg go’sht va go’sht mahsulotlari, 126 kg sut, 66 dona tuxum, 77 kg kartoshka, 5 kg sabzovot, 32 kg poliz mahsulotlari 13 kg meva to‘g‘ri kelgan. Bu respublikadagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan. O‘sha paytdagi bo‘lajak davlat rahbari

¹ Рашидова Г, Комилов Д. Шароф Рашидов: Инсон – давр кўзгусида ва давр – инсон тақдирида. –Toshkent: Tasvir, 2017.

xalqparvar va haqiqat tarafdori bo'lganini uning quyidagi fikrlarida ham ko'rishimiz mumkin. "Ayni bir paytda oddiy kishilar qayta qurishdan o'z hayotiy shart-sharoitlarining va birinchi navbatda oziq-ovqat ta'minotining yashilanishini kutgan edilar va kutmoqdalar. Ular va'dalarni eshitaverib charchadilar, undan to'yib ketdilar. Aholi dasturxonini real mahsulotlar bilan ta'minlash talab qilinadi. Biz yaqin vaqtlar ichida oziq-ovqat ta'minotini yaxshilamas ekanmiz, unda kishilarning ishonchini yo'qotamiz, ularning qayta qurishdan ixlosini qaytaramiz".

Viloyat rahbari mavjud vaziyatdagi muammo va kamchiliklarni keltirib o'tib, ularni kelajakda hal qilish yuzasidan o'zining amaliy takliflarini ham berib o'tadi. Bu takliflarga binoan aholi iste'molidagi go'sht va sut mahsulotlarini 1,5-2 marta, sabzavot-poliz mahsulotlarini va don yetishtirishni 10-12 foizga ko'paytirish nazarda tutilgandi.

Vaziyatni yaxshilash yuzasidan qishloq xo'jaligi samaradorligini keskin ko'tarish ta'kidlanib, agrar sohadagi mavjud vaziyat bu davrda quyidagicha edi. Viloyat bo'yicha har 100 gektar sug'oriladigan yer hisobiga o'rta hisobda 50 sentner go'sht, 178 sentner sut, 504 sentner poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. Bu respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan 1,2 marta kam bo'lib, o'sha vaqtdagi Ulyanov, Usmon Yusupov, Muborak va Nishon tumanlarida samaradorlik bundan ham past bo'lgan. Mehnat unumdorligi mamlakatda har bir qishloq xo'jalik xodimi hisobiga 8 ming so'mlik, respublikada 4 ming so'mlik mahsulot yetishtirilgani holda, viloyatda 3,8 ming so'mlik mahsulot yetishtirilgan. Bir gektar sug'oriladigan maydon respublikadagi 3 ming so'm o'rniga, 1600 so'm samara bergan. Bu holatga viloyat rahbari shunday fikrlarni bildirgan, "...bu mavjud tabiiy-iqtisodiy potensialdan foydalanishni hanuzgacha o'rgana olmayapmiz. Yerning bor kuchini siqib olgan holda unga amalda hech narsa bermayapmiz, natijada u charchab qolyapti va tabiiyki samaradorligi kamaymoqda. Almashlab ekish jami maydonlarning 65 foizida, patachilikda esa 40 foizida joriy etilgan, xolos". Statiskaga e'tibor qaratsak, almashlab ekish Bahoristonda – 37, Muborakda – 49, Nishonda – 55, Chiroqchida - 62 foizni, jumladan, paxta-beda almashlab ekish Bahoristonda – 19, Muborakda – 14, Nishonda – 30, Chiroqchida - 29 foizni tashkil etgan. Suvdan foydalanish ham yildan yilga oshib borgan. Paxta maydonlari 4,5 ming gektarga kamaytirilganiga qaramasdan qariyb 300 million kubometr suv ko'p sarflangan. Bu ma'ruzaga ko'ra, yer va suvdan foydalanishni yaxshilash shaxsan viloyat agrosanoat komiteti raisining o'rinbosari Sh. Xo'janazarovdan talab etiladi. Holat yuzasidan ayrim rahbar va mas'ullar tanqid ham qilinadi. Jumladan, "Қаршистрой" boshqarmasi boshliqlari S.Chegeboyev, T.Ergashev, B. M. Tanis shular qatoridandir. Yana bir narsaga ahamiyat berish kerakki, iqtisodiy jihatdan shunday tang ahvolga qaramasdan, qo'shimchasiga katta mablag' va kuch talab qiluvchi Qarshi cho'lini o'zlashtirishda ham bu davrda

oqsash kuzatila boshlandi. Misol uchun, Qarshi cho'lini o'lashtirishning birinchi navbatida 430 km yopiq drenaj, 26 km kollektor va 40km sug'orish tarmoqlari kam qurilgan. Muammoni hal qilish yuzasidan kadrlarning qishloq xo'jaligi potensialidan va viloyatning qulay tabiiy sharoitidan foydalanishga bo'lgan munosabatn tubdan o'zgartirish, har bir litr suv har bitta texnika vositasining Oziq-ovqat dasturini bajarishga xizmat qilishiga erishish lozimligi qat'iy takidlangan.

Istiqboldagi rejalarga ko'ra ahvolni yaxshilash bo'yicha brigada, oilaviy pudrat va yakka tartibdagi mehnatni keng joriy etish orqali dehqonlarni byurokratizm iskanjasidan batamom xalos etish, uni yerning haqiqiy xo'jayiniga aylantirish kerakligi aytib o'tiladi. Ahamiyatli jihati shundaki, bundan 30 yillar ilgari aytilgan gaplar behuda ketmadi. I.A.Karimov respublika rahbari bo'lgan vaqtlarda ham qonun kuchi bilan amalda bo'ldi, Sh.M.Mirziyoyev respublika rahbari bo'lgach esa bu holatlar yanada rivojlantirildi. Jumladan, 2018 – yil mart oyida perzident Sh.M.Mirziyoyev agrar sohani yanada rivojlantirishga doir qaror va qonunlar tashabbuskori bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolaridan tashqari ijtimoiy sohaning muhim tarkibiy muammolaridan biri bo'lgan aholini uy-joy bilan ta'minlash muammolari ham e'tibordan chetda qolmagan. Masalan, ma'ruza qilingunga qadar 10 yil ichida quruvchilar tomonidan 400 ming kvadrat metr uy-joy kam qurib berilgan. Bundan tashqari aholini tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, viloyatning chekka hududlariga olib boradigan yo'llar ahvolidan ham so'z borib, muammolarning hal etilishi yuzasidan topshiriqlar berilgan. Sog'liqni saqlash, maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshilash, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni yanada faollashtirishga doir ko'rsatmalar berilgan. O'sha yillar davomida ma'muriy organlar xodimlarining bir qismi qonunchilik va xizmat intizomini buzganlik uchun tegishlicha jazo berilgan. Ikki yil ichida 200 militsiya xodimi ichki ishlar organlaridan bo'shatilib yuborilgan, 10 nafari esa jinoiy jaobgarlikka tortilgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, viloyatdagi ahvol jiddiy muammo va kamchiliklar girdobiga qolgandi. Shunga qaramay viloyatning birinchi rahbari I.A.Karimov mavjud holatni yaxshilash bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Ta'kidlash joizki, viloyat miqyosida amalga oshirilgan xayrli ishlar ko'p vaqt o'tmay butun O'zbekistonda joriy etildi. Bu islohotlarning davomi esa bugungi kunda I.A.Karimovning shogirdi va safdoshi Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va rahbarligida izchil ravishda yuqori su'ratlarda amalga oshirilmoqda.